



YUIK VA ARTERIAL GIPERTENZIYADA ATEROSKLEROZ XAVF OMILLARINING UCHRASH CHASTOTASI, PROFILAKTIKASI BO'YICHA KO'RSATMALAR

Odilova N.Q., Mavlonov N.X.

RIKIATM Buxoro minaqaviy filiali

Buxoro, O'zbekiston

Tadqiqot maqsadi: yosh ayollarda yuik va arterial gipertenziya (AG) da ateroskleroz (AS) uchun xavf omillari (XO) tarqalishini solishtirma o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. "Respublikaning turli hududlarida yurak ishemik kasalligi (YuIK) va ateroskleroz epidemiologiyasi" standart metodologiyasiga muvofiq 18-60 yoshdagi 126 nafar ayollar, jumladan, 56 nafar yoshlar (18–29 yosh) tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda 3 ta guruh tuzildi: I-guruh (jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar) - 21 kishi; II-guruh (aqliy mehnat) - 19 kishi, o'qituvchilar, iqtisodchilar, tibbiyot vakillari va ijtimoiy soha xodimlari, xizmatchilar; III - guruh (tizimli stress va jismoniy nafaol ish faoliyati) - 16 kishi, taksi va avtomobil haydovchilari.

Tadqiqot natijalari. Ayollarning yosh bo'lishiga qaramay, AG (9,2%), YuIKning epidemiologik shakllari (4,8%), shuningdek, chap qorincha gipertrofiyasi (ChQG, 6,9%), past jismoniy faollik (PJF, 48,3%), chekish (Ch., 13,8% va alkogolli ichimliklar iste'moli (AI, 66,6%), ortiqcha vazn (TVI, 18,4%), dislipoproteidemiya (DLP, 13,7%) 1-guruhdagi odamlarda juda tez-tez kuzatilgan. Biroq, ikkinchi guruhda (AG - 10,5%, YuIK - 8,8%, ChQG - 14,0%, PJF - 64,9%, Ch-15,7%, AI - 66,6%, TVI - 22,8% va DLP - 24,6%) va III (13,1 - 10,5 - 13,1 - 26,3 - 89,5 - 15,7 - 28,9 - 25,9% mos ravishda o'sish tendentsiyasini ko'rsatdi ($r < 0,05$), bu esa AG, YuIK va ularning XO xususiyatlarining tarqalishi va yosh ayollarning kasbiy faoliyati o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, gipertoniya mavjudligidan xabardorlik darajasi - I va III-guruh vakillari orasida gipertoniya haqida hech kim ma'lumotga ega emas va II-guruh ayollarining yarmidan ko'pi (60,0%) kasallik haqida bilar edi. II va III-guruhdagi shaxslarda AGni nazorat qilish bo'yicha hech qanday chora-tadbirlar (dori vositalari va nomedikamentoz tadbirlar) qo'llanmagani aniqlangan. Oliy ma'lumotli (II guruh) aqliy mehnat xodimlari gipertoniya bilan bog'liq holda muntazam ravishda ma'lumot olishi kuzatilgan va 66,6% hollarda terapevtik samara bilan davolangan. Shu bilan birga, tikuvchi ayollar ($n=16$) va boshqa kasb egalari ($n=12$) qo'shimcha tekshiruv (maxsus so'rov va EKG monitoringi) o'tkazilganda yurak ritmi buzilishining klinik belgilari 7,6% bemorlarda xuddi shu holat bilan bog'liq EKG belgilar esa 11,9% patsientlarning birinchi guruhida 3,7 va mos ravishda 7,4%, ikkinchisida ($p < 0,05$) aniqlangan bo'lib, bu yosh ayollarda yurak-qon tomir xavfini shakllantirishga ishlab chiqarish faoliyatining o'ziga xos ta'sirini tasdiqlaydi.

Xulosa. Olingan natijalar AG va AS xavf omillari chastotasining yosh ayollar mehnatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatadi, bu «Yosh ayollar salomatligi» ma'lumotlar bankini yaratish va tegishli tibbiy-psixologik monitoringni amalga oshirishni nazarda tutadi.